

POKISTON ICHKI SIYOSATIDA PUSHTUN OMILINING TRANSFORMATSIYASI (1979 – 2000-yillarda)

Saparbayeva Sarvinoz Bozarboy qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti,

E-mail: sarvinozsaparbayerova123@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1979 – 2000-yillarda Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda pushtun omili etnik-mintaqaviy masala doirasidan chiqib, davlat xavfsizligi, chegaraviy boshqaruv, afg'on qochqinlari, diniy-siyosiy harakatlar va Afg'oniston yo'nalishidagi strategik manfaatlar bilan bog'liq murakkab siyosiy omilga aylangani asoslab beriladi. 1979-yilda Afg'onistonda boshlangan urush Pokistonning shimoli-g'arbiy hududlarida pushtun ijtimoiy-siyosiy muhitini o'zgartirdi, qabilaviy hududlarning harbiy-logistik ahamiyatini oshirdi va pushtun masalasini Pokiston ichki barqarorligi bilan bevosita bog'ladi. Maqolada Ziyo ul-Haq davridagi islomlashtirish siyosati, mujohidlar harakati, madrasa tarmoqlari, 1990-yillardagi Tolibon omili hamda "strategik chuqurlik" yondashuvining Pokiston ichki siyosiy jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Pokiston, pushtun omili, ichki siyosat, Afg'oniston inqirozi, Durand chizig'i, Pushtuniston g'oyasi, FATA, Shimoli-g'arbiy chegara viloyati, Tolibon, strategik chuqurlik, xavfsizlik siyosati.*

THE TRANSFORMATION OF THE PASHTUN FACTOR IN PAKISTAN'S DOMESTIC POLITICS: THE EXPERIENCE OF 1979–2000

Saparbayeva Sarvinoz Bozarboy qizi

Basic doctoral student, Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: sarvinozsaparbayerova123@gmail.com

ANNOTATION

This article analyzes the transformation of the Pashtun factor in Pakistan's domestic politics between 1979 and 2000. The study argues that the Pashtun factor moved beyond the framework of an ethnic-regional issue and became a complex political factor related to national security, border governance, Afghan refugees, religious-political movements, and Pakistan's strategic interests in Afghanistan. The Afghan war that began in 1979 changed the socio-political environment of Pashtun-populated areas in northwestern Pakistan, increased the military-logistical role of

tribal territories, and connected the Pashtun issue directly with Pakistan's internal stability. The article examines the influence of Zia-ul-Haq's Islamization policy, the Mujahideen movement, madrasa networks, the Taliban factor in the 1990s, and the concept of "strategic depth" on Pakistan's domestic political processes.

Keywords: Pakistan, Pashtun factor, domestic politics, Afghan crisis, Durand Line, Pashtunistan idea, FATA, North-West Frontier Province, Taliban, strategic depth, security policy.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ПУШТУНСКОГО ФАКТОРА ВО ВНУТРЕННЕЙ ПОЛИТИКЕ ПАКИСТАНА: ОПЫТ 1979–2000 ГОДОВ

Сапарбаева Сарвиноз Бозарбой кизи

Докторант (PhD), Ташкентский государственный университет
востоковедения

E-mail: sarvinozsaparboyeva123@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется трансформация пуштунского фактора во внутренней политике Пакистана в 1979–2000 годах. В исследовании обосновывается, что пуштунский фактор вышел за рамки этнорегиональной проблемы и превратился в сложный политический фактор, связанный с государственной безопасностью, пограничным управлением, афганскими беженцами, религиозно-политическими движениями и стратегическими интересами Пакистана в афганском направлении. Афганская война, начавшаяся в 1979 году, изменила социально-политическую среду пуштунских районов северо-западного Пакистана, усилила военно-логистическое значение племенных территорий и напрямую связала пуштунский вопрос с внутренней стабильностью Пакистана. В статье рассматривается влияние политики исламизации Зия-уль-Хака, движения моджахедов, сети медресе, фактора «Талибан» в 1990-е годы и концепции «стратегической глубины» на внутривнутриполитические процессы Пакистана.

Ключевые слова: Пакистан, пуштунский фактор, внутренняя политика, афганский кризис, линия Дюранда, идея Пуштунистана, ФАТА, Северо-Западная пограничная провинция, Талибан, стратегическая глубина, политика безопасности.

KIRISH

Pokiston ichki siyosatida etnik omillar doimo muhim o'rin tutib kelgan. Mamlakat tashkil topganidan buyon panjobiyilar, singhlar, balujlar, muhajirlar va

pushtunlar o'rtasidagi siyosiy vakillik, resurslar taqsimoti, markaz-periferiya munosabatlari hamda xavfsizlik masalalari davlat boshqaruvining asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu jarayonda pushtun omili alohida ahamiyatga ega. Chunki pushtunlar nafaqat Pokistonning yirik etnik guruhlaridan biri, balki Afg'oniston bilan tarixiy, qabilaviy, madaniy va chegaraviy aloqalarga ega bo'lgan transchegaraviy etnos sifatida ham siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

Pushtun omilining Pokiston ichki siyosatidagi ahamiyati, avvalo, Dyurand chizig'i bilan bog'liq tarixiy meros, "Pushtuniston" g'oyasi, shimoli-g'arbiy chegara viloyati va federal ma'muriy qabilalar hududlarining o'ziga xos siyosiy-huquqiy maqomi bilan izohlanadi. Pokiston davlati uchun pushtun masalasi faqat etnik identiklik yoki mintaqaviy vakillik masalasi bo'lib qolmagan. U davlatning hududiy yaxlitligi, Afg'oniston bilan munosabatlari, chegaraviy xavfsizlik, ichki siyosiy barqarorlik va diniy-siyosiy harakatlar bilan uzviy bog'liq murakkab omil sifatida shakllangan.

1979-yilda Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining yangi bosqichga o'tishiga sabab bo'ldi. Afg'onistondagi urush oqibatida millionlab qochqinlar Pokistonga, xususan, pushtunlar istiqomat qiluvchi shimoli-g'arbiy hududlarga joylashdi. Natijada ushbu hududlar afg'on mujohidlarini qo'llab-quvvatlash, harbiy-logistik ta'minot, diniy-mafkuraviy safarbarlik va xalqaro geosiyosiy raqobatning muhim maydoniga aylandi. Bu holat pushtun omilini oddiy etnik muammodan Pokistonning xavfsizlik siyosati va Afg'oniston strategiyasining markaziy elementlaridan biriga aylantirdi.

1980-yillarda Ziyo ul-Haq rejimining islomlashtirish siyosati, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa tashqi kuchlarning afg'on mujohidlarini qo'llab-quvvatlashi pushtun hududlarida diniy-siyosiy faollikning ortishiga olib keldi. 1989-yilda esa Sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketganidan keyingi siyosiy bo'shliq, afg'on guruhlarini o'rtasidagi ichki kurashlar, Tolibon harakatining yuzaga kelishi va Pokistonning "strategik chuqurlik" konsepsiyasi pushtun omilining yanada murakkablashuviga sabab bo'ldi. Shu jihatdan 1979 – 2000-yillar oralig'i Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining transformatsiyasini o'rganish uchun muhim tarixiy davr hisoblanadi.

1979 – 2000-yillarda Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining shakllanishi, kuchayishi va transformatsiyasini tahlil qilish, ushbu omilning davlat xavfsizligi, chegaraviy boshqaruv, qochqinlar siyosati, diniy-mafkuraviy jarayonlar va Afg'oniston bilan bog'liq strategik manfaatlar bilan aloqadorligini ilmiy jihatdan ochib berish muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pushtun omili, Pokiston – Afg‘oniston munosabatlari, Dyurand chizig‘i va “Pushtuniston” g‘oyasi masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Afg‘oniston va Pokistondagi etnosiyosiy jarayonlarni tahlil qilgan olimlar pushtun omilini transchegaraviy identiklik, tarixiy xotira, qabilaviy aloqalar va davlat chegaralarining siyosiy-huquqiy maqomi bilan bog‘liq holda izohlashadi. Sh.G‘oyibnazarov¹, Sh.Akmalov², O.Abdurahmonov³ kabi tadqiqotchilar pushtun omilining Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi siyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari va mintaqaviy barqarorlikka ta‘sirini yoritganlar.

Xorijiy adabiyotlarda esa ushbu masala ko‘proq Afg‘on urushi, mujohidlar harakati, Pokiston xavfsizlik apparati, FATA hududlari, Tolibon harakati va “strategik chuqurlik” konsepsiyasi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. A.Rashid⁴, B.Rubin⁵, S.Jones⁶, M.Marsden⁷ kabi mualliflar Pokistonning Afg‘oniston yo‘nalishidagi siyosati va pushtun hududlaridagi diniy-siyosiy jarayonlar o‘rtasidagi aloqadorlikka e‘tibor qaratganlar. Mazkur tadqiqotlarda pushtun omilining faqat milliy-etnik masala emas, balki davlat xavfsizligi va geosiyosiy strategiya bilan bog‘liq murakkab hodisa ekani ta‘kidlanadi.

Masalani tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va siyosiy-institutsional yondashuvlardan foydalangan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanib, tarixiylik usuli 1979 – 2000-yillar oralig‘ida pushtun omilining bosqichma-bosqich o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi. Tizimli tahlil esa pushtun omilini Pokiston ichki siyosiy tizimi, xavfsizlik institutlari, markaz-periferiya munosabatlari va Afg‘oniston yo‘nalishidagi strategik manfaatlar bilan bog‘liq holda o‘rganishga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil usuli orqali 1979 – 1988, 1989 – 1994 va 1994 – 2000-yillar bosqichlaridagi farqli xususiyatlar solishtiriladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida etnosiyosiy yondashuv, xavfsizliklashuv nazariyasi va markaz-periferiya konsepsiyasidan foydalanildi. Etnosiyosiy yondashuv pushtun omilining identiklik, hududiy da‘vo va siyosiy vakillik jihatlarini ochishga yordam beradi. Xavfsizliklashuv yondashuvi esa ushbu

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 207.

² Akmalov Sh. “Tolibon” omilining Pokiston geostrategiyasiga ta‘siri: manfaatlar va tahlikalar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, Issue 12, 2022. – B. 308–316.

³ Abdurahmonov O. Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – T., 2025.

⁴ Rashid A. Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. – New Haven: Yale University Press, 2000.

⁵ Rubin B. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. – New Haven: Yale University Press, 2002.

⁶ Jones S.G. In the Graveyard of Empires: America’s War in Afghanistan. – New York: W.W. Norton, 2009.

⁷ Marsden P. The Taliban: War, Religion and the New Order in Afghanistan. – London: Zed Books, 1998.

omilning Pokiston davlat siyosatida qanday qilib ichki xavfsizlik, chegaraviy nazorat va strategik tahdidlar doirasida talqin qilinganini izohlash imkonini beradi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1979 – 2000-yillarda Pokiston ichki siyosatida pushtun omili uch bosqichda transformatsiyaga uchradi. Birinchi bosqich 1979 – 1988-yillarni qamrab olib, Afg'on urushi, qochqinlar oqimi va pushtun hududlarining harbiy-logistik ahamiyati ortishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich 1989 – 1994-yillarni o'z ichiga olib, Sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketganidan keyingi siyosiy bo'shliq, afg'on guruhlari o'rtasidagi ziddiyatlar va diniy-mafkuraviy tarmoqlarning mustahkamlanishi bilan ajralib turadi. Uchinchi bosqich 1994 – 2000-yillarda Tolibon harakatining shakllanishi va Pokistonning Afg'oniston siyosatida pushtun omilidan strategik vosita sifatida foydalanishga intilishi bilan belgilanadi.

1979 – 2000-yillarda pushtun omilining transformatsiya bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyat
I bosqich	1979 – 1988	Afg'on urushi, qochqinlar oqimi, mujohidlar harakati va pushtun hududlarining harbiy-logistik markazga aylanishi.
II bosqich	1989 – 1994	Siyosiy bo'shliq, madrasa tarmoqlari, diniy-siyosiy guruhlar va chegaraviy beqarorlikning kuchayishi.
III bosqich	1994 – 2000	Tolibon harakati, "strategik chuqurlik" yondashuvi va pushtun omilining Pokiston xavfsizlik siyosatiga bog'lanishi.

Birinchi bosqichda pushtun hududlari Afg'onistondagi urush bilan bevosita bog'langan front orti hududlariga aylandi. Pokistonning Shimoli-g'arbiy chegara viloyati va qabilaviy hududlari afg'on mujohidlarini tayyorlash, qurollantirish va moddiy jihatdan ta'minlash jarayonida muhim rol o'ynadi. Bu esa mahalliy pushtun jamiyatida siyosiy faollik, diniy safarbarlik va tashqi moliyaviy ta'sirning ortishiga olib keldi. Afg'on qochqinlarining katta qismi aynan pushtunlar yashaydigan hududlarga joylashgani demografik va ijtimoiy bosimni kuchaytirdi.

Ikkinchi bosqichda Afg'onistondagi urushning yangi shaklga o'tishi Pokiston ichki siyosatida pushtun omilini yanada murakkablashtirdi. 1989-yildan keyin Sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketgan bo'lsa-da, urush natijasida shakllangan harbiy-diniy infratuzilma saqlanib qoldi. Qabilaviy hududlarda davlat institutlarining cheklanganligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va diniy maktablar tarmog'ining kengayishi radikal qarashlarning tarqalishiga sharoit yaratdi. Bu jarayon Pokiston

markaziy hokimiyati uchun bir vaqtning o'zida imkoniyat va xavf sifatida namoyon bo'ldi.

Uchinchi bosqichda Tolibon harakatining Afg'oniston siyosiy maydoniga chiqishi pushtun omilining Pokiston ichki siyosatidagi o'rnini yanada kuchaytirdi. Tolibon harakatining ijtimoiy tayanchi asosan afg'on pushtunlari bilan bog'liq bo'lgani, uning ayrim yetakchilari Pokistondagi madrasa muhitida shakllangani, Islomobodning esa Afg'onistonda o'ziga yaqin siyosiy kuchni qo'llab-quvvatlashga intilgani pushtun omilini strategik siyosatning muhim elementiga aylantirdi. Shu bilan birga, bu jarayon Pokiston ichki xavfsizligi uchun uzoq muddatli tahdidlarning ham shakllanishiga zamin yaratdi.

MUHOKAMA

Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining transformatsiyasi, avvalo, davlatning markazlashgan boshqaruv modeli va qabilaviy hududlarning o'ziga xos siyosiy-huquqiy maqomi bilan bog'liq. Federal ma'muriy qabilalar hududi uzoq vaqt davomida to'liq konstitutsiyaviy integratsiyadan tashqarida qolgan, bu esa markaziy hukumatning ushbu hududlardagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita boshqarish imkoniyatlarini cheklagan. Natijada pushtun hududlari davlat siyosati, qabilaviy an'analar, diniy tarmoqlar va tashqi geosiyosiy kuchlar manfaatlari kesishgan maydonga aylangan.

1979-yildan keyingi davrda Pokiston hukumati pushtun hududlariga nisbatan ikki yoqlama siyosat yuritdi. Bir tomondan, markaziy hokimiyat pushtun millatchiligi va "Pushtuniston" g'oyasining kuchayishidan xavotirda bo'ldi. Chunki bunday g'oya Pokistonning hududiy yaxlitligiga tahdid sifatida talqin qilindi. Ikkinchi tomondan, Afg'onistondagi sovetparast hukumatga qarshi mujohidlarni qo'llab-quvvatlash jarayonida aynan pushtun hududlaridan tayanch maydon sifatida foydalanildi. Shu tariqa pushtun omili Pokiston siyosatida bir vaqtning o'zida xavf va resurs sifatida namoyon bo'ldi.

Ziyo ul-Haq davrida davlat siyosatining islomlashtirilishi pushtun omilining etnik mazmunini diniy-mafkuraviy mazmun bilan boyitdi. Islomiy shiorlar pushtun millatchiligini neytrallashtirish va Afg'onistondagi sovet kuchlariga qarshi kurashni legitimlashtirish vositasi sifatida qo'llanildi. Biroq bu siyosat natijasida pushtun hududlarida diniy radikallashtirish, qurolli guruhlarining ijtimoiy ildiz otishi va markaziy davlat nazoratidan nisbatan mustaqil xavfsizlik muhitining shakllanishi kuzatildi.

1990-yillarda Pokistonning Afg'oniston siyosatida "strategik chuqurlik" yondashuvi muhim o'rin egalladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, Afg'onistonda Islomobodga do'stona munosabatdagi siyosiy kuchning hokimiyatga kelishi Pokistonning Hindiston bilan strategik raqobatida muhim ahamiyatga ega deb qaraldi.

Shu nuqtayi nazardan Tolibon harakati Pokistonning Afg'oniston yo'nalishidagi manfaatlariga mos kuch sifatida qabul qilindi. Ammo bu yondashuv pushtun omilini Pokiston ichki xavfsizlik tizimiga yanada chuqurroq bog'ladi.

Tolibon omili pushtun identikligining siyosiy talqinini ham o'zgartirdi. Agar 1950 – 1970-yillarda pushtun omili ko'proq "Pushtuniston" g'oyasi va etnik millatchilik bilan bog'liq holda ko'rilgan bo'lsa, 1980 – 1990-yillarda u diniy-siyosiy safarbarlik, jehod mafkurasi, madrasa tarmoqlari va xavfsizlik strategiyasi bilan uyg'unlashdi. Bu transformatsiya Pokiston ichki siyosatida pushtun masalasining yangi xavfsizlik o'lchamini yuzaga chiqardi.

Pushtun omilining transformatsiyasi Pokistonning siyosiy institutlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Armiya va razvedka tuzilmalari Afg'oniston yo'nalishidagi siyosatda markaziy rol o'ynagan sari, fuqaroviy hukumatlarning pushtun hududlariga nisbatan mustaqil siyosat yuritish imkoniyati cheklana bordi. Bu esa Pokiston ichki siyosatida xavfsizlik apparatining ta'sirini kuchaytirgan omillardan biri bo'ldi. Shu ma'noda pushtun omili Pokiston ichki siyosatida nafaqat etnik masala, balki davlat institutlari o'rtasidagi vakolatlar muvozanatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ham namoyon bo'ldi.

Shuningdek, afg'on qochqinlari masalasi ham pushtun omilining transformatsiyasida muhim rol o'ynadi. Qochqinlar oqimi Pokistonning shimoli-g'arbiy hududlarida demografik tarkib, mehnat bozori, mahalliy resurslar, ta'lim tizimi va xavfsizlik muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qochqinlar lagerlari ayrim hollarda siyosiy va mafkuraviy safarbarlik maydoniga aylandi. Bu esa pushtun hududlaridagi ijtimoiy jarayonlarni Pokiston ichki siyosatining muhim muammolaridan biriga aylantirdi.

Mazkur davr tajribasi shuni ko'rsatadiki, pushtun omilini faqat etnik millatchilik doirasida tushuntirish yetarli emas. 1979 – 2000-yillarda u bir vaqtning o'zida etnik, diniy, harbiy, ijtimoiy, migratsion va geosiyosiy omillar uyg'unlashgan murakkab siyosiy hodisaga aylandi. Pokiston hukumati ushbu omildan Afg'oniston siyosatida strategik vosita sifatida foydalanishga intilgan bo'lsa-da, uning ichki xavfsizlikka salbiy oqibatlari keyingi davrlarda yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1979 – 2000-yillar Pokiston ichki siyosatida pushtun omilining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tgan davri bo'ldi. 1979-yilgacha pushtun masalasi asosan Dyurand chizig'i, "Pushtuniston" g'oyasi, etnik vakillik va qabilaviy hududlarning siyosiy maqomi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, Afg'oniston urushi natijasida u xavfsizlik, migratsiya, diniy-mafkuraviy safarbarlik va mintaqaviy strategiya bilan uzviy bog'landi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pushtun omilining transformatsiyasi uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lgan. Birinchidan, pushtun hududlari Afg‘on urushi davrida harbiy-logistik va siyosiy safarbarlik markaziga aylandi. Ikkinchidan, afg‘on qochqinlari, madrasa tarmoqlari va diniy guruhlar pushtun ijtimoiy muhitini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Uchinchidan, Tolibon harakati va “strategik chuqurlik” yondashuvi pushtun omilini Pokistonning Afg‘oniston siyosati va ichki xavfsizlik tizimi bilan bevosita bog‘ladi.

Shu bois 1979 – 2000-yillarda pushtun omili Pokiston ichki siyosatida oddiy etnik-mintaqaviy omildan davlat xavfsizligi va strategik siyosat omiliga aylandi. Ushbu transformatsiya Pokistonning markaziy hukumat va periferik hududlar o‘rtasidagi munosabatlariga, fuqaroviy va harbiy institutlar muvozanatiga, chegara xavfsizligi va Afg‘oniston bilan munosabatlariga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur tarixiy tajriba pushtun omilini o‘rganishda etnik identiklik, xavfsizlik siyosati va geosiyosiy manfaatlarni birgalikda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 207.
2. Akmalov Sh. “Tolibon” omilining Pokiston geostrategiyasiga ta’siri: manfaatlar va tahlikalar. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume 2, Issue 12, 2022. – B. 308–316.
3. Abdurahmonov O. Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – T., 2025.
4. Rashid A. Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. – New Haven: Yale University Press, 2000.
5. Rubin B. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. – New Haven: Yale University Press, 2002.
6. Jones S.G. In the Graveyard of Empires: America’s War in Afghanistan. – New York: W.W. Norton, 2009.
7. Marsden P. The Taliban: War, Religion and the New Order in Afghanistan. – London: Zed Books, 1998.
8. Hussain R. Pakistan and the Emergence of Islamic Militancy in Afghanistan. – Aldershot: Ashgate, 2005.
9. Rahimov S. Dyurand chizig‘i: tarix, geosiyosat va xavfsizlik. – T.: 2023.
10. International Crisis Group. Pakistan’s Tribal Areas: Appeasing the Militants. Asia Report No. 125. – Brussels, 2006.
11. Dupree L. Afghanistan. – Princeton: Princeton University Press, 1980.